Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

# ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
## к договору (контракту) от 31.01.2022 г. № 100

**между Тоза хухуд ДУК филлиали и Жомбой ракамли технологиялар техникуми на общую сумму 976695,00**

Глава 079

Казначейский лицевой счёт 100010860182097092902079001

(в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | | Всего |
|---|---|---|---|---|
| | 4225000 | | | |
| Январь | | | | |
| Февраль | 976 695,00 | | | 976 695,00 |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| **Всего за год** | **976 695,00** | | | **976 695,00** |

Всего 976695,00 сум — Девятьсот семьдесят шесть тысяч шестьсот девяносто пять сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 976695,00 сум или 100,00%*** от общей суммы договора
подлежат предоплате в ________ мес. 20__ г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _______% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика ______________ (подпись) Эргашев Худойназар Хабибуллаевич (Ф.И.О.)

М.П.

Главный бухгалтер заказчика ______________ (подпись) Эрмаматов Шерзод Шермаматович (Ф.И.О.)

Принял работник казначейского подразделения ______________ (подпись)

«___» ________________ 20___г.

Получил работник заказчика ______________ (подпись)

«___» ________________ 20___г.

Konteynerli bo'lgan va/yoki konteyneri bo'lmagan yuridik shaxslar uchun qattiq va yoki suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha

**SHARTNOMA № 100**

2022 yil "31" Yanvar Jomboy shaxri

"Toza hudud" Davlat unitary korxonasi Jomboy tuman filiali bundan buyon matnda "IJROCHI" deb ataluvchi nomidan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbar **Sh.Madjidov** bir tomondan, Jomboy tuman Raqamli texnologiyalar texnikumi bundan buyon matnda "ISTE'MOLCHI" deb ataluvchi nomidan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbar birinchi o'rinbosari X.Бурхонов ikkinchi tomondan ushbu shartnomani, quyidagi maqsadlarda tuzdilar,

## 1.SHARTNOMA MAZMUNI.

1.1. Mazkur shartnomaga binoan Ijrochi bilan Iste'molchi o'rtasida qattiq va/yoki suyuq holdagi chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha (QMCH) to'g'ridan to'g'ri xo'jalik aloqa o'rnatiladi.

1.2.Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa Iste'molchi joylashgan hudud Jomboy tuman xokimligi Jomboy tuman Ш.Бурхонов ko'chasi manzilidan bir oyda 1 marotaba 1 dona (750 L, 1100 L, 20 m3) chiqindi saqlash konteyneridagi (QMCH) qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini bajarishni oz' zimmasiga oladi, hamda "Yo'nalish varaqasiga" va buyurtmachini arizasiga bajarilgan ishlar tuzasidan belgi qo'ydiradi. (Konteyneri bo'lgan yuridik shaxslar).

Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa shartnomada ko'rsatilgan haq evasiga Iste'molchi tomonidan maxsus belgilangan Jomboy tuman Raqamli texnologiyalar texnikumi bo`limi Jomboy tuman Ш.Бурхонов ko'chasi manzilida joylashgan (QYM) chiqindilarni yig'ish maydonchasidan (QMCH) qattiq maishiy chiqindilarni tashib chiqib ketishni o'z zimmasiga oladi (konteyneri bo'lmagan yuridik shaxslar).

Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa Iste'molchi joylashgan hudud Jomboy tuman xokimligi Jomboy tuman A.Qurbonov manzilidan suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi hamda, "Yo'nalish varaqasiga" va buyurtmachini arizasiga bajarilgan ishlar yuzasidan belgi quydiradi.

( yuridik shaxslar).

**QMCH ni umumiy to'lanishi bir yilga 19 m3 tashkil etadi.**

## 2.KO'RSATILGAN XIZMATLAR UCUN HISOB-KITOB QILISH.

2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx har bir QMCH uchun **44700** so'm, QQS bilan **51405** so'mni tashkil etadi. Suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun (markaziy kanalizatsiya yo'q joylarda) tarif (súyuq ) chiqindilarga tonnasi **52367** so'm QQS bilan **60222** so'mni tashkil etadi.

Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lov umumiy summasi **976 695** (to`qqiz yuz yetmish olti ming olti yuz to`qson besh ming) so'mni tashkil etadi.

"Ishlar" ning aniq turi, ularning soni va xajmi mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

2.2. Qattiq va suyuq chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarning o'zgargani to'g'risida Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish.

2.3. Iste'molchilar qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan har oylik xizmatlar qiymatining 100% ( foiz) miqdorida oldinda to'lovni amalga oshiradi, ko'rsatilgan xizmatlarning to'liq hisob kitobini esa-kalendar oy tugaguncha olishi shart.

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovni hisoblash tegishli davrlarda amalda bo'lgan qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

2.4. Yuridik manzil, bank rekvizitlari, korxona nomlari yoki QMCH hajmi o'zgargan taqdirda, tomonlarni 10 kun oldin yozma ravshda ogohlantirish kerak.

2.5. Qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha tegishli bo'lmagan sifatdagi yoki belgilangan muddatlardan ortiq uzilishlar bilan xizmatlar ko'satilganda, ushbu davrda xizmatlat uchun to'lovlar kamaytiriladi.

2.6. Ko'satilgan xizmatlar sifatini baholash natijasiga ko'ra Iste'molchi va Ijrochi vakillar tomonidan imzolanadigan, xizmatlar ko'satilmaganligini, tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'satilganligini tasdiqlovchi fakt bo'yicha dalolatnoma tuziladi.

Xizmatlar ko'rsatilmaganligi, tegishlicha bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilgani to'g'risida tuzilgan dalolatnoma qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovlar miqdorini hisob-kitob qilish, shuningdek o'z majburiyatlarini buzgani sababli Ijrochining jarima to'lash uchun hisoblanadi.

Ijrochi tomonidan Iste'molchining hayoti, salomatligi va mulkiga ziyon etkazilgan holatlarda etkazilgan zarar fakti qayd etilgan dalolatnoma tuziladi, u Ijrochi va Iste'molchilarning vakillari tomonidan imzolanadi.

Iste'molchi, Ijrochining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakillarining imzolari bo'gandagina dalolatnoma haqiqiy hisoblanadi.

Ijrochi vakili kelmagan taqdirda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy miqdorlari shirkat vakilining imzosi etarli bo'ladi.

Ijrochi vakili dalolatnomani imzolashdan bosh tortsa, mazkur dalolatnomaga imzo quyishdan bosh tortganligi sabablarini yozma ravishda asoslashi shart. Aks holda, Iste'molchi qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni sud qarori qabul qilingungacha to'xtatishga haqlidir.

## 3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.

**3.1. Ijrochi quyidagilarga majbur:**

Belgilangan muddatlarda qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishni amalga oshirich;

qonunchilikda, mazkur qoidalarda va shartnomada belgilangan shartlarga muvofiq Iste'molchiga zarur sifatdagiqattiqvasuyuqmaishiychiqindilarniolibchiqibketishbo'yichaxizmatlarko'satish;

qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan muddatlarda Iste'molchining buyurtmanomalarini bajarish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimini tatbiq etish va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlarining amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchilarning murojaatlari (arizalari, takliflari, shikoyatlari), shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;

Iste'molchining murojaatiga asosan, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun konteynerlarning zarur miqdorda bo'lishini ta'minlash;

Aholining xayoti, salomayligi shuningdek atrof muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib borish (konteynerlar va axlat to'plash shaxobchalarini dezinfeksiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan);

To'planib qolgan chiqindilarni hisobini olib borish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarini olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarning o'zgargani to'g'risida Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek ommaviy vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish;

Iste'molchiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik va ularni bartaraf etish choralarini qo'llash;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun to'lovlar hisob-kitobining holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzdorlarning yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish;

San PiN Rus. №0297-11 binoan chiqindilarni yig'ish shaxobchalarini va qutilarni dezinfeksiya qilish;

**3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:**

xizmatlar uchun shartnomalar tuzish va uning talablarini bajarish;

QMCH tashlanadigan koneynerlarni qirilish va yirik hajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik,aksincha, ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida shartnoma tuzish va haq to'lash;

Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarining erkin Yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz holda saqlashni ta'minlash;

QMCH ni o'z vaqtida tashib chiqib ketilishini doimo nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilganhollarda +99894-537-80-02 telefoniga telefonagramma yo'llash orqali Ijrochiga ma'lumot berish;

Bajarilgan ishning hajmini Ijrochining hujjatlarida Iste'molchi vakilining imzosi va korxona muhri bilan tasdiqlab borish;

Har oyda oyning boshida o'tgan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini ko'rsatuvchi hisob dalolatnomasini rasmiylashtirish;

Har oyda oyning oxirigacha o'tgan oyda bajarilgan ishlarning dalolatnomasiga asosan pul mablag'larini Ijrochining hisob raqamiga o'tkazish hamda rejaviy ish hajmiga qarab oldindan 100% miqdorida to'lovlarni amalga oshirish;

konteyner tartibida to'plashda-chiqindi to'plash shaxobchalarida chiqindilarni joylashtirishda paketlarni tegishli konteynerlarga qattiq maishiy chiqindilarning turlari bo'yicha tashlash;

qattiq maishiy chiqindilarni ko'chalarga,suv yo'llariga, ariq va qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mib tashlash uchun ajratilmagan joylarga, shuningdek harakatdagi avtotransport vositasidan yo'laklar va ko'chalarning transport yuradigan qismiga tashlamaslik;

chiqindilarni korxona hududida va ruxsat etilmagan joylarda ko'mib tashlashga yo'l qo'ymaslik.

## 4.TOMONLARNING HUQUQLARI.

4.1 Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

Shartnoma asosida, o'ziga zarur bo'lgan belgilangan sifatdagi, hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar bermaydigan hajmdagi xizmatlardan foydalanish;

Xizmatlar ko'rsatilayotganda Ijrochi aybi bilan yuzaga kelgan kamchiliklarning bepul bartaraf etilishini va shartnomada kelishilgan miqdorlarda неустойка (jarima yoki penya) to'lanishini talab qilish;

Shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini o'z vaqtida va muddatdan kechiktirib bajarganlik uchun har bir kuniga, 0.4% miqdorida, lekin ish hajmini 50% dan oshmagan miqdorida penya to'laydi.

Ijrochining qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining hajmi va sifati, ularning ko'rsatilishi shartlari, xizmatlar uchun to'lov miqdorlarining o'zgargani va to'lov tartibi to'g'risidagi axborotlarni olish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun elektron to'lov tizimi orqali to'lash va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

Ijrochi tomonidan shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan hollarda Ijrochiga yozma yoki telefon orqali +99897-396-18-16 shikoyatlar taqdim etish va Ijrochidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmagani faktini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzishni, shuningdek aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;

Shartnomaga muvofiq, vaqtincha ishlab chuqarish ishlari bo'lmagan, hujjatlar bilan tasdiqlangan davr yoki shartnomada belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmagan davr uchun qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatlaridan to'liq yoki qisman ozod qilinish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari sifatsiz amalga oshirilsa, agar Ijrochi o'z vaqtida shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab qilib sudga murojaat etish.

Iste'molchi qonun hujjatlarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## 5.SHARTNOMA MUDDATI

5.1. Shartnoma muddati "31" yanvar 2022 yildan " 31 " dekabr 2022 yilgacha amal qiladi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Jomboy tuman G'aznachilik bo'linmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan otkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

5.2. Tomonlar shartnoma muddati tugagandan so'ng yozma ravishda boshqa munosabatlar bildirmasalar shartnoma bekor qilgunga qadar o'z kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.

5.3. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.

## 6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

6.1. Tomonlar orasida kelib chiqqan barcha kelishmovchiliklar va tortishuvlar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, tomonlar tomonidan hal etilmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida belgilangan qonunchilikga binoan sud orqali hal etiladi.

## 7. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI:

| " IJROCHI " | " ISTE'MOLCHI " |
| --- | --- |
| " Toza hudud" Davlat unitary korxonasi Jomboy tuman filiali | Jomboy tuman Raqamli texnologiyalar texnikumi |
| (Xizmat ko'rsatuvchining nomi) | (Byudjet mablag' oluvchining nomi) |
| Manzil: Jomboy tumani A.Qurbonov MFY Ibn sino ko'chasi 6 uy | Manzil: Jomboy shaxri Sh.Rashidov ko'chasi, 2 uy |
| Tel./faks +99899-598-82-00 | Tel./faks |
| H/R 20210000400781002009 | sh/h 100010860182097092902079001 |
| Byudjet mablag' oluvchi STIRI 304938205 | Byudjet mablag' oluvchi STIRI 200736803 |
| OKONX 38210 | OKONX 85320 |
| MFO: 00270 | Moliya vazirligi G'aznachilik bo'linmasi |
| Bank nomi OATB Agro bank Jomboy tuman filiali | Gazna h/v 23402000300100001010 |
| | Bank nomi Markaziy bank Toshkent shahar Bosh boshqarmasi XKKM MFO: 00014 |
| | G'aznachilik STIRI 201122929 |
| Raxbar: ____________ Sh.Madjidov | Raxbar: ____________ |
| (imzo) | (imzo) |
| M.O'. | M.O' |

Huquqshunos ____________ Litsenziya (diplom) № B64/141 berilgan sanasi: "30" 06 2014 yil

Imzolagan sana 31.01.2022

Huquqshunos ____________ Litsenziya (diplom) № 133902 berilgan sanasi: "27" 07 2017 yil

Imzolagan sana 31.01.2022